

**“Astrum” IT-akademiyasining o‘quv kurslarida ta’lim oladigan
ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki iqtidorli yoshlarni tanlash
hamda ularga ajratilgan ta’lim kreditlari bo‘yicha foiz to‘lovlarini
kompensatsiya qilish va kafillik berish tartibi to‘g‘risida**

B I T I M

Toshkent shahar

02.02.2023 y.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent viloyatida axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarga ixtisoslashgan “Astropolis” massivini qurish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 30-martdagি PQ-184-son qarori (keyingi o‘rinlarda – Qaror) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-194-son Farmoniga (keyingi o‘rinlarda – Farmon deb yuritiladi) muvofiq, **O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi** va **“BILIM TECH” MChJ** (keyingi o‘rinlarda – Tomonlar) birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi “Bilim Tech” MChJ quyidagilarni kelishib oldilar:

1. Qarorga muvofiq:

“Bilim Tech” MChJ tomonidan tashkil etilgan “Astrum” IT-akademiyasining bir yillik o‘quv kurslarida ta’lim oladigan iqtidorli va ijtimoiy himoyaga muhtoj o‘quvchilar uchun AT “Aloqa bank” tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining 75 baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan foizli stavkada bir yillik imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatda ta’lim kreditlari ajratiladi;

2022-2024-yillar davomida “Astrum” IT-akademiyasining bir yillik o‘quv kurslarida ta’lim olayotgan 4000 nafargacha iqtidorli va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga ajratiladigan ta’lim kreditlari foiz to‘lovlarini Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) hisobidan kompensatsiya qilinadi va kredit bo‘yicha bankka kafillik beriladi.

2. Tomonlar qarorda belgilanganidek, 2022–2024-yillar davomida “Astrum” IT-akademiyasining bir yillik o‘quv kurslarida ta’lim oladigan yoshlarga (keyingi o‘rinlarda – talabgor yoshlar) ta’lim krediti ajratilishi uchun ularning ro‘yxatini shakllantirish hamda ajratilgan kreditlar bo‘yicha foiz to‘lovlarini Agentlik mablag‘lari hisobidan qoplash va ta’lim kreditlari bo‘yicha Agentlik kafilligini rasmiylashtirish ilovadagi “Astrum” IT-akademiyasining o‘quv kurslarida ta’lim oladigan ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki iqtidorli yoshlarni tanlash hamda ularga ajratilgan ta’lim kreditlari bo‘yicha foiz to‘lovlarini kompensatsiya qilish va kafillik berish tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan amalga oshirilishi to‘g‘risida kelishib oldilar.

3. Ushbu Bitim bilan qamrab olinmagan munosabatlar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

4. Ushbu Bitim Tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2027-yil 31-dekabrga qadar amal qiladi.

5. Ushbu Bitim imzolanishi munosabati bilan Tomonlar o'rtasida imzolangan 2022-yil 15-apreldagi 1-sonli Bitim va 2022-yil 3-oktabrdagi 1-sonli Bitimga qo'shimcha kelishuv o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

6. Ushbu Bitim o'zbek tilida har bir tomon uchun bir nusxadan ikki nusxada tuzildi.

**O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi
direktori**

Toshkent sh.,
2023-yil 2 fevral,
01/01-son



A. Sa'dullayev

**"BILIM TECH" MChJ
Bosh direktori**

Toshkent sh.,
2023-yil _____,
_____ -son

A. Vasiyev



Yoshlar ishlari agentligi va
“BILIM TECH” MChJ o‘rtasida tuzilgan
2023-yil 2 - fevral dagi
01-07/01 / -son kelishuvga
ilova

**“Astrum” IT-akademiyasining o‘quv kurslarida ta’lim oladigan
ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki iqtidorli yoshlarni tanlash
hamda ularga ajratilgan ta’lim kreditlari bo‘yicha foiz to‘lovlарини
kompensatsiya qilish va kafillik berish tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

I. Asosiy tushunchalar va umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-martdagи “Toshkent viloyatida axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarga ixtisoslashgan “Astropolis” massivini qurish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-184-son qaroriga (keyingi o‘rinlarda – qaror) va 2022-yil 30-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-194-son Farmoniga (keyingi o‘rinlarda – Farmon) asosan “BILIM TECH” MChJ tomonidan tashkil etilgan “Astrum” IT-akademiyasining asosiy o‘quv kurslarida (keyingi o‘rinlarda – o‘quv kurslari) yoshlarning ta’lim olishi uchun ajratilgan Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan foizli stavkadagi ta’lim kreditining muddati o‘tmagan asosiy qarzi uchun hisoblangan foiz to‘lovlарини Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) tomonidan kompensatsiya qilish va ushbu kredit bo‘yicha bankka kafillik berish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniлади:

ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar – “Astrum” IT-akademiyasiga o‘qishga kirish uchun o‘quv kurslari birinchi sinov (preseason) bosqichida 75 va undan yuqori ball to‘plagan hamda keyingi bosqichda “Astrum” IT-akademiyasining ichki imtihonidan 50 ball va undan yuqori ball to‘plagan ijtimoiy himoyaga muhtoj, shu bilan birga quyidagi toifalardan biriga mansub bo‘lgan (o‘sha toifaga mansubligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlarga asosan) yoshlar:

nogironligi bo‘lgan;

jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan;

yetim yoki ota-onा qaramog‘idan mahrum bo‘lgan;

muayyan yashash joyiga ega bo‘lмаган;

kam ta’minlangan oilalardagi yoshlar;

zo‘ravonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan;

oila boquvhilarining kamida bittasi birinchi guruh yoki har ikkalasi ikkinchi guruh nogironi bo‘lgan oila farzandi;

iqtidorli yoshlar – “Astrum” IT-akademiyasiga o‘qishga kirish uchun o‘quv kurslari birinchi sinov (preseason) bosqichidan va ichki imtihonidan 75 ball va undan yuqori ball to‘plagan o‘quvchilar;

kafillik – ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar tomonidan “Astrum” IT-akademiyasida ta’lim olishi uchun ta’lim kreditini rasmiylashtirishda Agentlik tomonidan Bankka beriladi;

kompensatsiya – “Astrum” IT-akademiyasining o‘quv kurslarida ta’lim olish uchun 2022–2024-yillarda 4000 nafargacha yoshlarga ajratiladigan ta’lim kreditiga hisoblanadigan kreditning muddati o‘tmagan asosiy qarzi uchun hisoblangan foiz to‘lovlarinining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan qismini kompensatsiya qilish maqsadida Agentlik tomonidan har oyda Bankka o‘tkazib boriladigan mablag‘;

ma’lumotnoma – Agentlik tomonidan beriladigan, AT “Aloqabank”dan (keyingi o‘rinlarda – Bank) ajratilgan ta’lim krediti bo‘yicha muddati o‘tmagan asosiy qarzi uchun hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan foiz to‘lovlari Agentlikning Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) hisobidan qoplab berilishi va Agentlik tomonidan zarur hollarda ushbu ta’lim krediti bo‘yicha kafillik berilishi to‘g‘risida hujjat;

talabnoma – kompensatsiya to‘lovlarini, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga “Astrum” IT-akademiyasining o‘quv kurslarida ta’lim olish uchun ajratilgan ta’lim krediti bo‘yicha Agentlik tomonidan berilgan kafillik asosida kreditning asosiy qarzini bir oy muddat ichida to‘lab berish to‘g‘risida Bank tomonidan Agentlikka yuboriladigan so‘rov;

ta’lim krediti – “Astrum” IT-akademiyasining o‘quv kurslarida (keyingi o‘rinlarda – o‘quv kurslari) yoshlarning ta’lim olishi uchun Bank tomonidan bir yil imtiyozli davr bilan 3 yil muddatga bazaviy hisoblash miqdorining 75 baravarigacha miqdorda ajratiladigan, foiz to‘lovlari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan kredit;

tomonlar – Agentlik va “BILIM TECH” MChJ.

yoshlar – “Astrum” IT-akademiyasining o‘quv kurslarida ta’lim olayotgan, Agentlik tomonidan ta’lim kreditining foiz to‘lovlari uchun kompensatsiya to‘lab berilishi va/yoki kafillik berilishi haqida ma’lumotnoma olgan 16 yoshga to‘lgan va 31 yoshga to‘limgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashab kelayotgan fuqaroligi bo‘limgan fuqarolar;

shartnoma – yoshlarning “Astrum” IT-akademiyasida ta’lim olishi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi, yoshlar va “BILIM TECH” MChJ o‘tasida imzolangan hujjat.

II. Agentlik tomonidan kompensatsiya berish tartibi

3. Qarorga muvofiq Astrum tomonidan tashkil etilgan o‘quv kurslarida ta’lim oladigan ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki iqtidorli yoshlar uchun Bank tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining 75 baravaridan ko‘p bo‘limgan miqdorda Markaziy

bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan foizli stavkada bir yil imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga ta’lim kreditlari ajratiladi.

4. 2022–2024-yillarda o‘qishga qabul qilingan 4000 nafargacha iqtidorli yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga ajratiladigan ta’lim kreditlari foiz to‘lovlar Agentlik tomonidan kompensatsiya qilinadi. Bunda, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga ta’lim kreditini rasmiylashtirishda Agentlik tomonidan kafillik berilishi mumkin.

5. “Astrum” IT-akademiyasiga o‘qishga qabul qilingan iqtidorli yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarning murojaatiga asosan “Astrum” IT-akademiyasi ushbu yoshlarga ta’lim krediti ajratish uchun ularning ro‘yxatini shakllantiradi va ularga oid hujjatlar ilova qilingan holda Agentlikka taqdim etib boradi.

6. Taqdim etilgan ro‘yxatdagi yoshlarning belgilangan talablarga muvofiqligi Agentlik mas’ul xodimlari tomonidan 10 ish kuni muddatda o‘rganib chiqiladi. Bunda, talab etiladigan tegishli hujjatlar “Astrum” IT-akademiyasidan so‘rab olinishi mumkin.

7. O‘rganish yakuniga yetgach, Agentlik tomonidan ro‘yxat va unga ilova qilingan hujjatlar yoshlarga ta’lim krediti ajratish uchun Bankka yuboriladi.

8. “Skoring” baholash tizimi orqali bankning ichki tartibida belgilangan shartlar asosida yoshlarga ta’lim krediti ajratish masalasi Bank tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Bank tomonidan ta’lim krediti ajratilgan yoshlarning Kompensatsiya reyestri har bir yosh fuqaro kesimida to‘lov grafigi bilan birga Agentlik va Astrumga har oyning 1-sanasiga qadar rasmiy xat bilan yuboriladi.

Agentlik Bank tomonidan ajratilgan kreditlar bo‘yicha taqdim etilgan reyestr asosida kompensatsiya to‘lovlarni oyma-oy yoki oldindan 3 oygacha bo‘lgan davr uchun kompensatsiya qilishi mumkin.

Bunda, ta’lim krediti bo‘yicha foiz to‘lovlar har oyning 10-kuniga qadar Agentlik tomonidan Bankning tegishli hisobvarag‘iga kredit oluvchilarning reyestagini ilova qilgan holda o‘tkazib boriladi.

Taqdim etilgan reyestriga muvofiq Bank ushbu mablag‘larni ta’lim krediti foizlarini qoplash uchun kredit oluvchilarning bankdagi hisobvarag‘iga o‘tkazib boradi.

III. Agentlik tomonidan kafillik berish va to‘lovlarни amalga oshirish tartibi

9. Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar ta’lim krediti bo‘yicha kafil jalg qilish imkoniyatiga ega bo‘lmagan hollarda ularning yozma iltimosiga asosan Agentlik tomonidan kafillik berilishi mumkin.

10. Agar:

a) ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh fuqaro o‘qishni to‘liq yakunlab, kredit bo‘yicha asosiy qarzni to‘lash imkoniga ega bo‘lmasa, Bankning talabnomasiga asosan Agentlik tomonidan ushbu nizom talablariga muvofiq asosiy qarz va foiz to‘lovlar Bankka to‘lab beriladi;

b) iqtidorli yosh fuqaro o‘qishni to‘liq yakunlasa, Bankning talabnomasiga asosan Agentlik tomonidan ushbu nizom talablariga muvofiq foiz to‘lovlar Bankka to‘lab beriladi;

d) ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh fuqaro o‘ziga bog‘liq bo‘lмаган hollarda (vafot etishi, sog‘lig‘i tufayli, fors-major holatlari va boshqalar) o‘qishni yakuniga etkaza olmasa, “Astrum” IT-akademiyasi yosh fuqaro o‘qishdan chetlatilgan sanagacha bo‘lgan davr uchun Bank tomonidan ajratilgan ta’lim krediti summasini chegirib tashlagan holda qolgan davr uchun kreditning asosiy qarzini besh kun muddatda Bankka qaytaradi. (Masalan, A. ismli yosh fuqaroning o‘qishi uchun Bank tomonidan 15 mln so‘m ta’lim krediti ajratilgan, A. 1 yillik o‘quv dasturi bo‘yicha 3 oy o‘qib, keyingi o‘qishni o‘ziga bog‘liq bo‘lмаган hollarda davom ettirolmasa, “Astrum” IT-akademiyasi 3 oy uchun kredit summasini chegirib tashlab, qolgan summani, ya’ni 11,25 mln so‘mni Bankka qaytaradi: $15 \text{ mln} : 12 \text{ oy} = 1,25 \text{ mln}$; $1,25 \text{ mln} \times 3 \text{ oy} = 3,75 \text{ mln}$; $15 \text{ mln} - 3,75 \text{ mln} = 11,75 \text{ mln}$).

Bunda, agar ushbu fuqaroga Agentlik tomonidan ta’lim krediti bo‘yicha kafillik berilgan bo‘lsa, “Astrum” IT-akademiyasi tomonidan yuqorida keltirilgan to‘lovlar Bankka qaytarilgandan so‘ng qolgan asosiy qarzni to‘lashga yosh fuqaroning imkonи bo‘lмаган hollarda, Bankning talabnomasiga asosan Agentlik bir oy muddatda asosiy qarzni va/yoki foiz to‘lovleri bo‘yicha qarzdorlikni Bankka to‘lab beradi;

e) ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh fuqaro o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hollarda (darsslarni o‘zlashtirmasa, “Astrum” IT-akademiyasi ichki tartib qoidalarni buzsa va boshqalar) o‘qishni yakuniga yetkaza olmasa, “Astrum” IT-akademiyasi ushbu yosh fuqaroning o‘qishdan chetlatilgani sabablarini ko‘rsatgan holda 3 kun muddatda Agentlikni va Bankni yozma xabardor qiladi.

Bunda, Agentlik tomonidan ushbu yosh fuqaro chetlatilgan taqdirda hisoblangan kredit bo‘yicha asosiy qarz (agar Agentlik tomonidan kafillik berilgan bo‘lsa) va foiz to‘lovleri Bankka to‘lab beriladi;

f) iqtidorli yosh fuqaro o‘ziga bog‘liq bo‘lgan va bog‘liq bo‘lмаган hollarda o‘qishni yakuniga yetkaza olmasa, “Astrum” IT-akademiyasi ushbu yosh fuqaroning o‘qishdan chetlatilgani sabablarini ko‘rsatgan holda 3 kun muddatda Agentlikni va Bankni yozma xabardor qiladi.

Bunda, Agentlik tomonidan ushbu yosh fuqaro chetlatilgan sanaga qadar hisoblangan foiz to‘lovleri Bankka to‘lab beriladi, keyingi davr uchun hisoblangan foiz to‘lovleri Bank tomonidan belgilangan tartibda kredit olgan fuqarodan undiriladi;

IV. Tomonlarning o‘zaro hamkorligi

11. Tomonlar mazkur Nizom shartlari asosida hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradilar.

12. Tomonlar o‘zaro hamkorlikni sifatli va o‘z vaqtida tashkil etish uchun o‘zlarining alohida tarkibiy bo‘linmasi yoki mas’ul xodimlarini biriktiradilar.

V. Axborotlarning sir saqlanishi

13. Tomonlar quyidagi ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalari orkali e’lon qilishi, og‘zaki yoki yozma shaklda yoxud boshqa yo‘sinda tarqatishi yoki ma’lum qilishi, uchinchi shaxslar e’tiboriga yetkazishi, bunday ma’lumotlarni qo‘lga kiritishi uchun uchinchi shaxslarga bevosita yoki bilvosita, shu jumladan, ana shunday ma’lumotlar xizmat vazifasini bajarishi munosabati bilan o‘ziga ishonib topshirilgan

yoxud ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni saqlash tartibining buzilishi oqibatida imkoniyat yaratib berishi ta'qilqanadi:

- a) Qarz oluvchilarga oid bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar;
- b) Bank siriga oid ma'lumotlar;
- c) tijorat siriga oid ma'lumotlar;
- d) Agentlikning moliyaviy yordamidan foydalanishda Tomonlarga ma'lum bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

VI. Yakunlovchi qoidalar

14. 2024-yil 31-dekabr kunidan boshlab Bank tomonidan beriladigan ta'lim kreditlari bo'yicha Agentlik tomonidan kafillik berilmaydi va kompensasiya to'lanmaydi.

15. Ushbu Nizomga qonunchilikdagi o'zgartirishlar asosida tomonlar ixtiyoriga ko'ra har ikkala tomon imzolagan qo'shimcha kelishuvlar shaklida o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.